SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МICE-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDiy MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	



KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI



Axmedov Muzaffar Shokirjonovich

NamDTU menejment kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: muzaffarsp86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda inson kapitalidan samarali foydalanishning nazariy asoslarini, amaliy yo'llarini dunyoning yetakchi brend korxonalari tajribasi va zamonaviy ilmiy izlanishlar asosida tahlil qilindi. Maqolada asosiy e'tibor inson kapitalini strategik raqobat ustunligi manbaiga aylantiruvchi boshqaruv yondashuvlariga, shu jumladan, Google, Amazon, Patagoniya, Apple va Zara kabi kompaniyalar namuna amaliyotlariga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, samaradorlik nafaqat nazariy yondashuvni, balki uni amalga oshirishning aniq, korporativ madaniyatga mos mexanizmlarini talab qiladi. Global brendlar tajribasi shuni isbotlaydiki, innovatsion menejment, qat'iy ma'lumotlarga asoslangan qarorlar, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni markazga qo'yish, integratsiyalashgan dizayn va muhandislik muhiti va tezkor moslashuvchanlikni rag'batlantirish inson kapitalidan maksimal samara olishning muvaffaqiyatli modellardir.

Kalit so'zlar: inson kapitali, strategik inson resurslarini boshqarish, global brendlar, talent menejment, ma'lumotlarga asoslangan HR, korporativ madaniyat, ishchi kuchi moslashuvchanligi.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical approaches for the efficient utilization of human capital in enterprises, based on the experiences of leading global brand corporations and contemporary scientific research. The primary focus is on management strategies that transform human capital into a source of strategic competitive advantage, including the exemplary practices of companies such as Google, Amazon, Patagonia, Apple, and Zara. The research demonstrates that effectiveness requires not only a theoretical approach but also specific mechanisms for its implementation that are tailored to the corporate culture. The experience of global brands proves that innovative talent management, strictly data-driven decision-making, placing environmental and social responsibility at the core, an integrated design and engineering environment, and fostering rapid adaptability are successful models for maximizing returns from human capital.

Key words: human capital, strategic human resource management (HRM), global brands, talent management, data-driven HR, corporate culture, workforce agility.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и практические подходы к эффективному использованию человеческого капитала на предприятиях на основе опыта ведущих мировых брендов-корпораций и современных научных исследований. Основное внимание уделяется управленческим подходам, превращающим человеческий капитал в источник стратегического конкурентного преимущества, включая образцовые практики таких компаний, как Google, Amazon, Patagonia, Apple и Zara. Исследование показывает, что эффективность требует не только теоретического подхода, но и конкретных механизмов его реализации, адаптированных к корпоративной культуре. Опыт глобальных брендов доказывает, что инновационный менеджмент талантов, строго основанные на данных решения, централизация экологической и социальной ответственности, интегрированная среда проектирования и инженерии, а также поощрение оперативной адаптивности являются успешными моделями для получения максимальной отдачи от человеческого капитала.

Ключевые слова: человеческий капитал, стратегическое управление человеческими ресурсами, глобальные бренды, управление талантами, HR, основанный на данных, корпоративная культура, гибкость рабочей силы.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalarning asosiy boyligi ularning inson kapitali ekanligi haqidagi tushuncha ilmiy adabiyotda mustahkam o'rnatilgan [1]. Biroq, bu qimmatli resursni amalda qanday boshqarish kerakligi haqidagi savolga javob har bir tashkilotning strategiyasi, madaniyati va sanoatiga qarab farq qiladi. Nazariya barqaror raqobatbardoshlik uchun qimmatli va kam takrorlanuvchi resurslarning muhimligini ta'kidlash [2], amaliyot shuni ko'rsatadiki, dunyoning eng muvaffaqiyatli kompaniyalari ushbu nazariyani o'ziga xos va ba'zan qarama-qarshi usullarda amalga oshiradi.

O'zbekiston korxonalari ko'pincha inson resurslarini boshqarishda yagona "eng yaxshi amaliyot" modelini qidirishadi. Ammo Google, Amazon va Patagoniyaning muvaffaqiyati shuni ko'rsatadiki, universal yechim mavjud emas. Samaradorlik inson kapitalini boshqarishning korxona umumiy strategiyasi va qadriyatlariga chuqur integratsiyalashgan, individual modelini ishlab chiqishdan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi o'rganilgan nazariy asoslar va umumiy amaliy yo'nalishlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish bo'lib, bu nuqtai nazardan maqola dunyoning turli sohalaridagi beshta yetakchi brend korxonaning inson kapitaliga bo'lgan yondashuvlarini tahlil qiladi. Har bir holat inson kapitalidan foydalanishning o'ziga xos modelini namoyish etadi va O'zbekiston korxonalari uchun amaliy o'rganish ob'ekti sifatida xizmat qiladi.

Inson kapitalini rivojlantirish zamonaviy korxona menejmentida faqat insonparvarlik emas, balki strategik zarurat sifatida qaraladi. Nazariy jihatdan inson kapitalini rivojlantirish quyidagi uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Bilim va malakani rivojlantirish (kognitiv kapital):

- formal ta'lim, ya'ni xodimlarning akademik bilimni oshirish uchun universitetlar va institutlar bilan hamkorlik qilish;
 - professional tayyorgarlik, ya'ni o'z sohasidagi yangi texnologiyalar va metodologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslari;
 - ichki o'qitish, ya'ni korxona ichidagi tajribali mutaxassislar tomonidan treninglar o'tkazish;
 - o'z-o'zini rivojlantirish, ya'ni xodimlarni mustaqil o'rganish uchun rag'batlantirish va resurslar taqdim etish.
- Salomatlik va farovonlikni ta'minlash (salomatlik kapitali):
- jismoniy salomatlik, ya'ni sport infratuzilmasini yaratish va profilaktik tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
 - ruhiy farovonlik, ya'ni stressni boshqarish, psixologik yordam xizmatlari va ish–hayot muvozanatini saqlash;
 - iqtisodiy xavfsizlik, ya'ni pensiya rejalari, moliyaviy maslahatlar va favqulodda vaziyatlar uchun jamg'armalar.

Kreativlik va innovatsionlikni rag'batlantirish (ijodiy kapital):

- innovatsion muhit, ya'ni yangi g'oyalarni sinab ko'rish uchun xavfsiz muhit yaratish;
- hamkorlik platformalari, ya'ni turli bo'limlar o'rtasida bilim almashishni rag'batlantirish;
- mukofot tizimlari, ya'ni innovatsion yechimlar uchun rag'batlantiruvchi mukofotlar joriy etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida tadqiqot ob'ekti sifatida shakllana boshladi. Mazkur yo'nalishning nazariy poydevori Gary S. Becker tomonidan yaratilgan bo'lib, u inson bilimlari, ko'nikmalari va sog'lig'iga yo'naltirilgan xarajatlarni iqtisodiy investitsiya sifatida talqin qiladi [1]. Becker yondashuvida inson kapitali ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omil bo'lib, uzoq muddatli raqobatbardoshlikning manbai sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiya keyinchalik ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik tizimlarini iqtisodiy rivojlanish bilan bog'lovchi ko'plab empirik tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Inson kapitali nazariyasining korxona darajasidagi rivoji resurslarga asoslangan yondashuv bilan chambarchas bog'liq. Barney tomonidan ilgari surilgan resurslarga asoslangan nazariya (RBV)ga ko'ra, korxonaning barqaror raqobat ustunligi qimmatli, kamyob, oson ko'chirilmaydigan va o'rnini bosib bo'lmaydigan resurslarga ega bo'lishi bilan belgilanadi [2]. Ushbu resurslar orasida inson kapitali markaziy o'rin egallaydi, chunki xodimlarning bilimlari, tajribasi va tashkilot madaniyati bilan uyg'unlashgan kompetensiyalari raqobatchilar tomonidan qisqa muddatda nusxalanishi qiyin bo'lgan strategik aktiv hisoblanadi. Shu bois zamonaviy adabiyotlarda inson kapitali ko'pincha moddiy resurslardan ustun qo'yiladi. Keyingi tadqiqotlar inson kapitalini faqat individual bilimlar yig'indisi emas, balki korporativ muhit, boshqaruv tizimi va madaniyat bilan integratsiyalashgan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqadi. Huselid tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar strategik inson resurslarini boshqarish amaliyotlari (tanlash, baholash, rag'batlantirish va rivojlantirish) korxona unumdorligi va moliyaviy natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi [8]. Bu yondashuv "yuqori ishlashga



yo'naltirilgan ish tizimlari" (HPWS) tushunchasining shakllanishiga olib keldi va inson kapitalini boshqarishning tizimli modelini taklif etdi.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda inson kapitalidan samarali foydalanishda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven HR) alohida yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Bock va Davenport tadqiqotlarida Google misolida inson resurslari bo'yicha qarorlar subyektiv qarashlar emas, balki statistik tahlil va tajribalar asosida qabul qilinishi ko'rsatiladi [3], [4]. Ushbu yondashuv inson kapitalini aniq o'lchanadigan va optimallashtiriladigan resurs sifatida talqin qiladi hamda Beckerning klassik nazariyasini zamonaviy analitik vositalar bilan boyitadi. Boshqa tomondan, Amabile tadqiqotlari inson kapitalidan maksimal samara olish faqat nazorat va baholash orqali emas, balki kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi [5]. Ushbu nuqtai nazar innovatsion kompaniyalarda erkinlik, ichki motivatsiya va g'oyalarni sinab ko'rish imkoniyatlari inson kapitalining haqiqiy qiymatini yuzaga chiqarishini ko'rsatadi. Ijtimoiy va qadriyatlarga asoslangan yondashuv Ulrich tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u inson resurslari funksiyasini nafaqat strategik hamkor, balki ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshiruvchi subyekt sifatida talqin qiladi [10]. Ushbu model Patagoniya kabi kompaniyalar faoliyatida yaqqol namoyon bo'lib, inson kapitalini korxonaning ijtimoiy va ekologik missiyasi bilan integratsiyalashgan holda boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda inson kapitalining dinamik jihatlari, ya'ni moslashuvchanlik, tezkor qayta tayyorlash va ko'p funksiyali kompetensiyalar masalalari ham keng yoritilmoqda. Ferdows va hammualliflar Zara misolida ishchi kuchining yuqori darajadagi moslashuvchanligi kompaniyaning tezkor bozor javobini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ko'rsatadilar [13]. Bu yondashuv resurslarga asoslangan nazariyaning dinamik imkoniyatlar konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitalidan samarali foydalanish yagona universal modelga emas, balki korxonaning strategiyasi, qadriyatlari va tashqi muhitiga moslashgan boshqaruv yondashuvlariga asoslanadi. Aynan shu ilmiy xulosalar ushbu maqolada tanlangan global brendlar tajribasini o'rganishning nazariy asosini tashkil etadi va O'zbekiston korxonalari uchun amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda inson kapitalidan samarali foydalanish masalasi dunyoda yetakchi bo'lgan Google, Amazon, Patagoniya, Apple va Zara kabi yetakchi kompaniyalarning inson kapitaliga yondashuvi, ularning biznes strategiyasi va korporativ madaniyati kontekstida tahlil qilinadi. Ma'lumotlar rasmiy korporativ hisobotlar, kompaniya asoschilarining kitoblari va tan olingan tadqiqotlar asosida olingan.

Dastlab "Google" kompaniyasiga to'xtalib o'tsak. "Google" o'zining aql-idrok va innovatsion salohiyatiga asoslangan biznes modelini qo'llab-quvvatlash uchun inson kapitalini boshqarishning eng ilg'or va ma'lumotga asoslangan tizimlaridan birini yaratgan. "People Analytics" modeli barcha HR qarorlari qattiq ma'lumotlar va A/B testlar asosida qabul qilinadi. Kompaniya sobiq HR direktori Laslo Bock o'zining "Work Rules!" kitobida qanday qilib ma'lumotlar asosida intervyu usullarini optimallashtirish yoki ovqatlanish zonasi dizayni kabi kichik tafsilotlarni jamoaviy muloqotga ta'sirini o'rganishni tasvirlaydi [3]. "20% qoidasi", ya'ni xodimlarga ish vaqtining 20% ini o'z loyihalariga bag'ishlashga ruxsat berish rasmiy va norasmiy ravishda ichki innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan [4]. Bu yondashuv inson kapitalini aniq o'lchanadigan va optimallashtiriladigan investitsiya sifatida ko'rishini bildiradi va bu Becker ta'limotiga moslikni beradi [1], lekin uni yuqori darajadagi empirik tahlillar va kreativlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit tamoyillari bilan birlashtiradi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Amazonning inson kapitalini boshqarish modeli uning mijozlarga keng ko'lamli xizmat ko'rsatish va doimiy operatsion takomillashtirishga bo'lgan majburiyati bilan chambarchas bog'liq. Umumiy ma'noda Amazonda qat'iy natijalarga yo'naltirilganlik va "mijozga yo'naltirilgan" egalik hissi hukmron ekanligini ko'rish mumkin.

Amazonning operativ madaniyatini aniqlovchi asosiy ramka uning "Rahbarlik tamoyillari" hisoblanadi. Amazon o'zining rasmiy karera saytida ta'kidlaganidek, kompaniya har kuni yangi loyihalar yuzasidan fikr yuritishda yoki muammolarni eng maqbul tarzda hal etish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ushbu tamoyillardan foydalanadi. Ushbu tamoyillar nafaqat rahbarlar, balki har bir xodimning harakatlari va qarorlari uchun yo'naltiruvchi qoidalar majmuasidir [6]. Kompaniyaning ta'kidlashicha, aynan shu tamoyillar Amazonni "o'ziga xos" (peculiar) tashkilotga aylantiradi. Ish faoliyatini baholash tizimi qat'iy va ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, doimiy ravishda past natija ko'rsatayotgan xodimlarni optimallashtirishga qaratilgan. Bred Stounning "The Everything Store" asarida ushbu tizim kompaniyaning tezkor o'sishi va yuqori samaradorligini qanday ta'minlagani, shuningdek, ayrim qiyin mehnat sharoitlari haqida so'z yuritiladi [7]. Ushbu model inson kapitalini yuqori natijalarga erishish majburiyati bilan bog'laydi va uni operatsion mukammallikning asosiy omili sifatida ko'radi. Bu yondashuv an'anaviy "yuqori ishlash amaliyotlari"ning (Huselid, 1995) qat'iy va natijaga yo'naltirilgan shakli hisoblanadi [8].



Patagoniya uch tarkibiy qismdan iborat biznes modeli, ya'ni "foйда", "inson manfaatları" va "yer sayyorasiga yordam berish" tamoyillariga asoslangan kompaniyadir. Shu nuqtai nazardan, kompaniyada maqsadga yo'naltirilganlik va ekologik sodiqlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tashqi kiyim ishlab chiqaruvchi Patagoniyaning inson kapitali modeli uning atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas'uliyatga bo'lgan asosiy e'tiqodi asosida shakllangan. Kompaniya asoschisi Yvon Chouinard o'zining "Let My People Go Surfing" asarida ushbu falsafani batafsil yoritadi [9]. Mazkur yondashuv amaliyotda xodimlarga ekologik loyihalarda ishtirok etish uchun ish vaqtida maxsus ta'til berish ("Environmental Internship Program") hamda bolali xodimlarni keng qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'ladi. Natijada xodimlarning sodiqligi, kreativligi va ichki motivatsiyasi yuqori darajada shakllanadi. Patagoniya ishchi kuchini faqat iqtisodiy resurs emas, balki korxonaning ijtimoiy missiyasini amalga oshiruvchi hamkor sifatida ko'radi. Ushbu yondashuv Ulrich tomonidan taklif etilgan "sotsial mutaxassis" modeliga mos keladi, biroq uni ekologik va etik tamoyillar bilan boyitadi [10].

Apple kompaniyasiga e'tibor qaratilsa, unda dizayn, muhandislik va maxfiylikning chuqur integratsiyasi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Apple o'zining yopiq ekotizimi va mukammal mahsulotlarga bo'lgan yondashuvini ta'minlash maqsadida o'ziga xos inson kapitali modelini shakllantirgan. Kompaniyada kuchli ichki madaniyat va maxfiylikni saqlashga alohida urg'u beriladi. Adam Lashinskyning "Inside Apple" kitobida kompaniyaning loyiha boshqaruvi va kuchli markaziy nazorat orqali dizayn, muhandislik va marketing yo'nalishlari o'rtasidagi integratsiyani qanday ta'minlashi bayon etiladi [11]. Bu esa mahsulot ishlab chiqish jarayonida turli kompetensiyalarga ega mutaxassislarning yaqin hamkorligini talab qiladi. Apple modeli Barnining "to'liq o'zlashtirib bo'lmaydigan resurslar" konsepsiyasini yaqqol aks ettiradi [2]. Kompaniyaning kuchli korporativ madaniyati va integratsiyalashgan ish jarayonlari raqobatchilar tomonidan oson nusxalanmaydi.

Zara kompaniyasi tezkorlik va moslashuvchanlikni ustuvor qadriyat sifatida qaraydi. Shu bilan birga, Zaraning korporativ madaniyati "imkonsiz" tushunchasini inkor etuvchi yondashuvga asoslangan. Kompaniyada kuchli tadbirkorlik ruhi hukmron bo'lib, ko'plab yosh va iste'dodli mutaxassislar ishga qabul qilinadi hamda ular qisqa vaqt ichida tashkilot ierarxiyasida yuqori lavozimlarga ko'tarilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zara do'kon menejerlarining taxminan uchdan ikki qismi ichki xodimlar orasidan tayinlanadi va xodimlar almashinuvi nisbatan past darajada saqlanadi. Brend yosh xodimlarga mas'uliyat yuklashdan cho'chimaydi [12]. Zaraning "tezkor moda" biznes modeli inson kapitalini boshqarish tizimida ham o'z aksini topadi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar xodimlarning tezkorlik va moslashuvchanlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bozordagi o'zgarishlarga tez javob berish uchun ishchi kuchining yuqori darajadagi moslashuvchanligi talab etiladi. Ferdows, Lyuis va Machuka tomonidan olib borilgan tadqiqotda Zaraning ishlab chiqarish, logistika va savdo bo'linmalarida ichki o'qitish, ko'p funksiyali ish o'rinlari va rejalashtirish orqali tezkor javob qobiliyatini qanday shakllantirgani tahlil qilinadi [13]. Zara ishchi kuchi moslashuvchanligini o'zining asosiy raqobat ustunligi sifatida baholaydi, bu esa resurslarga asoslangan nazariyaning dinamik ko'rinishiga mos keladi [2].

Tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan global brendlarning inson kapitaliga yondashuvlari bo'yicha solishtirma tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Global Brendlarning inson kapitaliga yondashuvi solishtirma tahlili

Korxona	Asosiy biznes Strategiyasi	Inson kapitali Modeli Markazi	Asosiy HR amaliyotlari	Nazariy moslik
Google	Innovatsiya va aql-idrok	Talent & Ma'lumotlar	People Analytics, 20% qoidasi, erkin muhit	Ma'lumotga asoslangan investitsiya, kreativ muhit [1,5]
Amazon	Mijozlarga xizmat & Operatsion samaradorlik	Natijalar & Majburiyat	Rahbarlik tamoyillar, qattiq performance review	Yuqori ishlash tizimlari (HPWS) [8]
Patagoniya	Ekologik & Ijtimoiy mas'uliyat	Maqsad & Qadriyatlar	Ekologik ta'tillar, oilaviy qo'llab-quvvatlash	Sotsial mutaxassis, korporativ fuqarolik [10]
Apple	Integral dizayn & mukammallik	Madaniyat & Integratsiya	Maxfiylik, loyiha boshqaruvi, kuchli brend sodiqligi	O'zlashtirib bo'lmaz resurslar, SHRM integratsiyasi [2]
Zara	Tezkor javob & moslashuvchanlik	Moslashuvchanlik & Tezlik	Ichki o'qitish, ko'p funksiyalilik, rejalashtirish	Ishchi kuchi moslashuvchanligi, Dinamik imkoniyatlar [2]



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganib chiqilgan global tajriba shuni ko'rsatadiki, inson kapitalidan samarali foydalanishning "bir o'lchamli, barchaga mos" yechimi mavjud emas. Har bir muvaffaqiyatli model o'ziga xos biznes strategiyasi, sanoat dinamikasi va korporativ qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. Integratsiya ushbu jarayondagi asosiy kalit hisoblanadi. Inson resurslarini boshqarish strategiyasi biznes strategiyasidan ajralmas bo'lishi lozim. Google'ning analitik yondashuvi, Amazon'ning rahbarlik tamoyillari va Patagoniya'ning ekologik dasturlari bevosita korxonaning nima bilan shug'ullanishi va uning mavjudlik maqsadi bilan uzviy bog'liq. Korporativ madaniyat inson kapitalini rivojlantirishda doimiy va hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Agar texnik va tashkiliy amaliyotlar kuchli korporativ madaniyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa, ularning samaradorligi past bo'ladi. Amazon'ning qat'iy natijaga yo'naltirilgan modeli hamda Patagoniya'ning gumanistik yondashuvi bir vaqtning o'zida yuqori samaradorlikni ta'minlay olgan. Muhimi, tanlangan model izchil va samarali amalga oshirilgan bo'lishidir.

Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan xorijiy brendlar tajribasidan kelib chiqib, respublikamizdagi mahalliy biznes subyektlari uchun quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

- inson resurslari bo'yicha qarorlar qabul qilishda hissiy yoki an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, ma'lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruvga o'tish zarur. Buning uchun dastlab kichik miqyosda xodimlar so'rovnomalari natijalarini tahlil qilish yoki turli o'qitish usullarining samaradorligini solishtirish mumkin;

- korporativ qadriyatlar faqat rasmiy shior yoki devorga osilgan deklaratsiya sifatida qolib ketmasdan, kundalik qarorlar va baholash tizimlariga chuqur singdirilishi lozim. Ish natijalari aniq o'lchanishi va doimiy tahlil qilinishi zarur. Inson kapitalini rivojlantirish maqsadida korporativ madaniyat bo'yicha doimiy o'qituvlarni yo'lga qo'yish hamda missiyadan kelib chiqqan ichki shiorlarni ishlab chiqish muhim;

- xodimlarning ma'naviy ehtiyojlari va qadriyatlariga e'tibor qaratish ularning ishga sodiqligini sezilarli darajada oshiradi. Korxona missiyasi nafaqat tashqi, balki ichki auditoriya, ya'ni xodimlar uchun ham mazmunli va jozibador bo'lishi kerak;

- funksional bo'limlar o'rtasidagi tashkiliy "devorlar"ni (siloslarni) bartaraf etish va loyihalar asosida hamkorlik qilish madaniyatini rivojlantirish innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Kuchli korporativ identifikatsiya xodimlar sodiqligini mustahkamlaydi;

- bozor tez o'zgarayotgan sharoitda ishchi kuchi ham mos ravishda tezkor qayta tayyorlanishi va rivojlanishi lozim. Doimiy o'qitish hamda ko'p funksiyali malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar strategik zaruratga aylanadi;

- korxonaning umumiy strategiyasiga inson kapitalini boshqarish modeli to'liq muvofiq bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalidan samarali foydalanish bir qator universal amaliyotlarni mexanik tarzda qo'llash bilan emas, balki har bir korxonaning o'ziga xos strategik yo'nalishi va qadriyatlariga asoslangan, izchil va chuqur integratsiyalashgan inson resurslari falsafasini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Global brendlar tajribasi bu borada noyob va amaliy ahamiyatga ega namuna bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Becker, G. S. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis with special reference to education (3rd ed.). University of Chicago Press. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/H/bo3684031.html>
2. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
3. Bock, L. (2015). Work rules! Insights from inside Google that will transform how you live and lead. Twelve. <https://www.hachettebookgroup.com/titles/laszlo-bock/work-rules/9781455554799/>
4. Iyer, B., & Davenport, T. H. (2008). Reverse engineering Google's innovation machine. Harvard Business Review, 86(4), 58–68. <https://hbr.org/2008/04/reverse-engineering-googles-innovation-machine>
5. Amabile, T. M. (1998). How to kill creativity. Harvard Business Review, 76(5), 76–87. <https://hbr.org/1998/09/how-to-kill-creativity>
6. Amazon. (n.d.). Leadership principles. <https://www.amazon.jobs/en/principles>
7. Stone, B. (2013). The everything store: Jeff Bezos and the age of Amazon. Little, Brown and Company. <https://www.hachettebookgroup.com/titles/brad-stone/the-everything-store/9780316219266/>
8. Huselid, M. A. (1995). The impact of human resource management practices on turnover, productivity, and corporate financial performance. Academy of Management Journal, 38(3), 635–672.
9. Chouinard, Y. (2005). Let my people go surfing: The education of a reluctant businessman. Penguin Press. <https://www.penguinrandomhouse.com/books/103728/let-my-people-go-surfing-by-yvon-chouinard/>
10. Ulrich, D. (1997). Human resource champions: The next agenda for adding value and delivering results. Harvard Business School Press. <https://store.hbr.org/product/human-resource-champions-the-next-agenda-for-adding-value-and-delivering-results/9897>
11. Lashinsky, A. (2012). Inside Apple: How America's most admired—and secretive—company really works. Business Plus. <https://www.hachettebookgroup.com/titles/adam-lashinsky/inside-apple/9781455512164/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
